MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-igtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.us/pages/4802


05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERRATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O‘ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR 15
Sodiqov Elmurod Shomurod o‘g‘li
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ 21
Адилов Шерзот Шамильевич
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE’MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI 30
Farmonov Dilshod Po‘latovich
SUN’IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO‘YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O‘ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O‘ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO‘NALISHLAR 36
Durdona Davletova
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI 56
Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
O‘ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEXANIZMI 61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 68
Safarov Shohboz Vahob o‘g‘li
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS 72
Azimov Shavkat Shuxratovich
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH 78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASH 85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN 90
Turaeva Dilnavoz
YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARI 96
Dilshod Karimboyev
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА 102
Юсупова Мохинур Фарход кизи
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА 110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ 121
Икрамова Нодира Бурхон кизи
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH 128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI 133
Temirova Shalola Erkinovna
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI 138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI 142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION 150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI 161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH 168
Jafarov Sobir Talab o'g'li
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH 173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI 181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА 190
Умаров Улугбек Унарович
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOIY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI 197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 202
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li
O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I STAVKALARINING BIR XILDA OSHIRILISHINING FISKAL, ISTE'MOL VA TAQSIMLANISHGA TA'SIRI 208
Musurmonov Sherzod Yusupovich
DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF A MARKETING MECHANISM FOR ATTRACTING APPLICANTS 217
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING SOTSIAL-IQTISODIY MAZMUNI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI 230
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich
DISPERS SISTEMALARINING TURLARI VA ULARNINGYO'L BITUMLARINING XOSSALARIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH 235
Abdullayeva Shoxista Shuxratovna, Adizov Bobirjon Zamirovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ 240
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARI (EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH) 245
Kuliboyev Azamat Shonazarovich
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 253
Obilov Mirkomil Rashidovich

MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Obilov Mirkomil Rashidovich
GulDU “Menejment” kafedrasi dotsenti v.b., Iqtisodiyot fanlari doktori
mirkomilrashidovich@gmail.com
ORCID: 0009-0002-7904-1587

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini kuchaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Aholining moliyaviy bilim va ko‘nikmalari, moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati hamda tadbirkorlik tashabbuslari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda moliyaviy savodxonlikning aholi daromadlarini boshqarish, jamg‘arish, kredit va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish, tadbirkorlik risklarini baholash hamda biznes faoliyatini rejalashtirishdagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, aholining tadbirkorlik faoliyatiga kirishidagi moliyaviy va institutsional to‘siqlar aniqlanib, ularni kamaytirishga qaratilgan ta’limiy, axborot-maslahat, moliyaviy va institutsional vositalarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan. Mazkur mexanizmning asosiy yo‘nalishlari sifatida moliyaviy ta’limni rivojlantirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlik ekotizimi subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari aholining iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik faoliyati, aholi iqtisodiy faolligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, moliyaviy bilim, moliyaviy ko‘nikmalar, tadbirkorlik salohiyati, moliyaviy resurslar, tadbirkorlik muhiti, moliyaviy ta’lim, biznes tashabbuslari, iqtisodiy faollik.

Аннотация. В данной статье исследованы организационно-экономические механизмы усиления вовлечения населения в предпринимательскую деятельность посредством повышения уровня финансовой грамотности. Теоретически и практически раскрыта взаимосвязь между финансовыми знаниями и навыками населения, способностью принимать финансовые решения и предпринимательскими инициативами. В исследовании обосновано значение финансовой грамотности в управлении доходами населения, сбережении, использовании кредитных и инвестиционных возможностей, оценке предпринимательских рисков, а также планировании предпринимательской деятельности. Кроме того, выявлены финансовые и институциональные барьеры, препятствующие вовлечению населения в предпринимательскую деятельность, и предложен организационно-экономический механизм, обеспечивающий взаимосогласованность образовательных, информационно-консультационных, финансовых и институциональных инструментов, направленных на их снижение. В качестве основных направлений данного механизма особое внимание уделено развитию финансового образования, формированию предпринимательских навыков, расширению возможностей доступа к финансовым ресурсам и усилению взаимодействия между субъектами предпринимательской экосистемы. Результаты исследования позволяют сформировать практические механизмы, способствующие повышению экономической активности населения и эффективному использованию предпринимательского потенциала.

Ключевые слова: финансовая грамотность, предпринимательская деятельность, экономическая активность населения, организационно-экономический механизм, финансовые знания, финансовые навыки, предпринимательский потенциал, финансовые ресурсы, предпринимательская среда, финансовое образование, бизнес-инициативы, экономическая активность.

Abstract. This article examines organizational and economic mechanisms for strengthening the involvement of the population in entrepreneurial activity through improving financial literacy. The theoretical and practical relationship between the population’s financial knowledge and skills, the ability to make financial decisions, and entrepreneurial initiatives is explored. The study substantiates the importance of financial literacy in managing household income, saving, utilizing credit and investment opportunities, assessing entrepreneurial risks, and planning business activities. In addition, financial and institutional barriers to entering entrepreneurial activity are identified, and an organizational and economic mechanism is proposed to ensure the coherence of educational, information and advisory, financial, and institutional instruments aimed at reducing these barriers. Particular attention is paid to such key areas of the mechanism as developing financial

education, building entrepreneurial skills, expanding access to financial resources, and strengthening cooperation among stakeholders in the entrepreneurial ecosystem. The findings make it possible to develop practical mechanisms that contribute to increasing the economic activity of the population and effectively utilizing entrepreneurial potential.

Keywords: financial literacy, entrepreneurial activity, economic activity of the population, organizational and economic mechanism, financial knowledge, financial skills, entrepreneurial potential, financial resources, entrepreneurial environment, financial education, business initiatives, economic activity.

KIRISH

Bugungi kunda aholining iqtisodiy faolligini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Mazkur jarayonda aholining moliyaviy bilim va ko‘nikmalari, daromad va xarajatlarni boshqarish, kredit va investitsiya imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hamda moliyaviy risklarni baholash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish tadbirkorlik salohiyatini oshirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, aholining bir qismida biznesni moliyalashtirish, moliyaviy resurslarni boshqarish va tadbirkorlik risklarini baholash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa moliyaviy savodxonlikni tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uzviy bog‘lash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy ta’lim, axborot-maslahat xizmatlari, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari va institutsional qo‘llab-quvvatlashni yagona tizim asosida tashkil etish aholining tadbirkorlik faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi moliyaviy savodxonlik va aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslash hamda ushbu jarayonni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda moliyaviy savodxonlikning aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishiga ta’sirini aniqlash uchun tizimli, qiyosiy va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik faolligi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi tashkiliy-iqtisodiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy yo‘nalishlari shakllantirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy savodxonlik va uning iqtisodiy faollikka ta’siri xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, A. Lusardi va O. Mitchell “The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence” tadqiqotida moliyaviy bilimni “inson kapitaliga investitsiyaning bir shakli” sifatida baholab, uning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini asoslagan. Mazkur olimlarning keyingi “The Importance of Financial Literacy: Opening a New Field” ishida esa moliyaviy savodxonlikning aholi farovonligi, ta’lim siyosati va moliyaviy qarorlar samaradorligiga ta’siri tizimli ravishda tahlil qilingan. A. Lusardi, O. Mitchell va V. Curto “Financial Literacy among the Young” tadqiqotida yoshlarning moliyaviy bilimlari past darajada ekanligini ko‘rsatib, moliyaviy savodxonlikning ta’lim va ijtimoiy-demografik omillar bilan bog‘liqligini aniqlagan. Shuningdek, 2024-yilda e’lon qilingan “Does financial literacy drive entrepreneurship in rural China?” tadqiqotida moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan qishloq aholisi tadbirkorlik faoliyatini boshlashga ko‘proq moyil ekanligi empirik jihatdan asoslangan. Ushbu tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikni shaxsiy moliyani boshqarish vositasi sifatida emas, balki tadbirkorlik qarorlarini shakllantiruvchi muhim iqtisodiy omil sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish va iqtisodiy faollikni kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratilmoqda. X. Xudayarova “Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va uning ahamiyati” maqolasida moliyaviy savodxonlikni “moliyaviy resurslar, bilim va ko‘nikmalar” bilan bog‘liq holda o‘rganib, xorijiy tajriba asosida uni rivojlantirish yo‘nalishlarini asoslagan. Sh. Kambarova “O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonlik faoliyatini rivojlantirish” tadqiqotida moliyaviy savodxonlikning “moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy resurslarni boshqarish va investitsiya” bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilgan hamda uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rsatib bergan. S. G‘aniyevning “Moliyaviy savodxonlikni oshirish asosida hududiy iqtisodiy salohiyatdan foydalanishning institutsional mexanizmlari” tadqiqotida esa moliyaviy savodxonlikning “tadbirkorlik tashabbuslarini kuchaytirish” va

hududiy iqtisodiy faollikni oshirishdagi roli asoslangan. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida jihatlar bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, moliyaviy ta’lim, moliyaviy resurslardan foydalanish, tadbirkorlik ko‘nikmalari va institutsional qo‘llab-quvvatlashni yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm doirasida uyg‘unlashtirish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlikning aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishidagi rolini baholashda, avvalo, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi real o‘rniga e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2015-yildagi 64,6 foizdan 2024-yilda 53,5 foizgacha pasaygan. Shu bilan birga, 2025-yilda mazkur ko‘rsatkich 52,2 foizni tashkil etgan. Mazkur raqamlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi qisqarayotganini emas, balki uning iqtisodiy tizimdagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, 2024-yilda mamlakatda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning yarmidan ko‘prog‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini faqat bandlik yoki daromad masalasi sifatida emas, balki makroiqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval
O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi

Yil	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi, %
2015	64,6
2016	66,8
2017	67,4
2018	63,5
2019	58,1
2020	56,7
2021	56,3
2022	54,3
2023	53,8
2024	53,5
2025	52,2

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2017-yilda 67,4 foizni tashkil etgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 53,5 foizga tushgan. 2017–2024-yillar oralig‘idagi pasayish 13,9 foiz punktini tashkil etadi. Nisbiy jihatdan esa kamayish quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta S = ((S2024 - S2017) / S2017) \times 100$$

Hisoblash:

$$\Delta S = ((53,5 - 67,4) / 67,4) \times 100 = -20,62\ \%$$

Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 2017-yilga nisbatan 2024-yilda qariyb 20,6 foizga kamaygan bo‘lsa-da, uning iqtisodiyotdagi ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu ko‘rsatkich aholining tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishning iqtisodiy ahamiyati yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, YAIMdagi ulushning o‘zi aholining moliyaviy savodxonligi darajasini bevosita ifodalamaydi. Shuning uchun mazkur ko‘rsatkichni moliyaviy savodxonlik bilan bevosita sababiy bog‘lash emas, balki tadbirkorlik muhitining umumiy iqtisodiy ko‘lamini tavsiflovchi indikator sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Tadbirkorlik subyektlari sonining dinamikasi ham aholining iqtisodiy faolligini baholash uchun muhim ko‘rsatkichdir. Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlariga ko‘ra, faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 2019-yilda 262 930 tani, 2020-yilda 334 767 tani, 2021-yilda 411 203 tani, 2022-yilda 462 834 tani va 2023-yilda 523 556 tani tashkil etgan. 2024-yilda esa mazkur ko‘rsatkich 417 080 tani tashkil qilgan. Ushbu o‘zgarishlarni oddiy o‘sish yoki pasayish sifatida izohlash yetarli emas, chunki tadbirkorlik subyektlari soniga ro‘yxatga olish, faoliyatni to‘xtatish, statistik tasniflash va ma’muriy hisob yuritishdagi o‘zgarishlar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ushbu indikator moliyaviy savodxonlikning mustaqil natijaviy ko‘rsatkichi sifatida emas, balki tadbirkorlik faolligi uchun umumiy kontekst ko‘rsatkichi sifatida qo‘llanilishi lozim (2-jadval).

2-jadval
Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari sonining dinamikasi

Yil	Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari, birlik
2019	262 930
2020	334 767
2021	411 203
2022	462 834
2023	523 556
2024	417 080
2025	358 116

2019–2023-yillarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 262 930 tadan 523 556 tagacha oshgan. Bu davrda mutlaq o‘sish 260 626 birlikni tashkil etgan. O‘sish sur’ati esa:

$$T = (523556 / 262930) * 100$$

$$T = 199,1\ \%$$

ya’ni 2023-yilda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 2019-yilga nisbatan qariyb ikki baravarni tashkil qilgan. Biroq 2024-yilda 417 080 tagacha, 2025-yilda esa 358 116 tagacha kamayish kuzatilgan. Shu sababli tadbirkorlik subyektlari sonidagi o‘zgarishlarni moliyaviy savodxonlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, mazkur natija tadbirkorlikka kirish bilan bir qatorda, korxonaning faoliyatini davom ettirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va risklarni boshqarish ko‘nikmalarining ham muhimligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri xalqaro empirik tadqiqotlarda ham asoslangan. Lusardi va Mitchell “The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence” tadqiqotida moliyaviy bilimni inson kapitaliga investitsiyaning bir shakli sifatida qaraydi va uning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Guo, Qian, Tan va Xie tomonidan 2024-yilda “Does financial literacy drive entrepreneurship in rural China?” nomli tadqiqotda esa moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik bevosita empirik usullar yordamida tekshirilgan. Tadqiqotchilar 2022-yilda Xitoyning Guangdong provinsiyasidagi yetti shahar qishloq hududlarida 18–55 yoshdagi uy xo‘jaliklari rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov ma’lumotlaridan foydalangan. Tadqiqotda probit modeli va instrumental o‘zgaruvchi yondashuvi qo‘llanilib, yuqori moliyaviy savodxonlik darajasiga ega respondentlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlash ehtimoli yuqoriroq ekani aniqlangan. Mualliflar 13 ta savol asosidagi baholashda respondentlarning 50 foizdan biroz ko‘prog‘i asosiy moliyaviy bilim savollariga to‘g‘ri javob berganini, ilg‘or moliyaviy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirganlar ulushi esa 2 foizdan kam bo‘lganini qayd etgan. Bu natija moliyaviy savodxonlikni faqat umumiy iqtisodiy bilim emas, balki biznes-rejalashtirish, xarajatlarni hisoblash va fiskal risklarni boshqarish bilan bog‘liq amaliy kompetensiya sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur ilmiy xulosani O‘zbekiston sharoitida tahlil qilganda, moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin: moliyaviy bilim → moliyaviy qaror → tadbirkorlik natijasi. Birinchi bosqichda shaxs foiz stavkasi, kredit qiymati, inflyatsiya, jamg‘arma, investitsiya, daromad va xarajatlar kabi kategoriyalarni tushunadi. Ikkinchi bosqichda ushbu bilimlar asosida kredit olish yoki olmaslik, investitsiya kiritish, jamg‘arma shakllantirish, biznes boshlash va xarajatlarni rejalashtirish bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Uchinchi bosqichda esa qarorning iqtisodiy natijasi — tadbirkorlik faoliyatining boshlanishi, biznesning davomiyligi, foydalilik va moliyaviy barqarorlik namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlikka ta’sirini quyidagi funksional ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$\mathbf{Tf = f(Fs, Mq, Rb, Iq)}$$

Bu yerda:
Tf — tadbirkorlik faolligi;
Fs — moliyaviy savodxonlik;
Mq — moliyaviy qarorlar sifati;
Rb — moliyaviy risklarni boshqarish;
Iq — moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish qobiliyati.

Mazkur yondashuvda moliyaviy savodxonlikning o‘zi yakuniy natija emas, balki iqtisodiy qarorlarning sifatini yaxshilovchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini oshirish uchun faqat o‘quv kurslarini tashkil etish yetarli emas. Moliyaviy ta’lim amaliy biznes-rejalashtirish, kredit mahsulotlarini taqqoslash, xarajatlarni hisoblash, daromadlarni prognozlash va risklarni baholash bilan bog‘lanishi kerak.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishning institutsional asoslari ham shakllanib bormoqda. Markaziy bankning

2026-yil 13-martdagi moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha sharhida 2019-yildan boshlab mamlakatda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning konseptual, institutsional va metodologik asoslari shakllantirilgani, shuningdek, ta’lim tashabbuslarini amalga oshirish uchun hamkorlik mexanizmlari rivojlantirilgani qayd etilgan. 2026-yil iyul oyida Markaziy bank tomonidan ERGO Analytics va Eval-Lab bilan hamkorlikda moliyaviy savodxonlik va jamg‘arish xulq-atvoriga qaratilgan cluster randomised controlled trial loyihasi amalga oshirilayotgani ham ma’lum qilingan. Mazkur tadqiqot 90 ta mahallada 2 700 nafar ishtirokchini qamrab olishi rejalashtirilgan bo‘lib, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi aholi bilan ishlashni nazarda tutadi. Bu holat O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlik masalasining oddiy targ‘ibot darajasidan empirik baholash va xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlariga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan aholining moliyaviy inklyuziyasi va moliyaviy savodxonligi bo‘yicha alohida tadqiqot natijalari ham e’lon qilingan. Bu tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikni moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki shaxsning moliyaviy bilimga ega bo‘lishi uning tadbirkorlik faoliyatiga avtomatik tarzda kirishini anglatmaydi. Bilim real iqtisodiy faoliyatga aylanishi uchun moliyaviy xizmatlarga kirish, axborot, maslahat, bozor imkoniyatlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham mavjud bo‘lishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini quyidagi umumiy ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$Mte = Fs + Fi + Tk + Mr + Iq$$

Bu yerda:

Mte — tadbirkorlikka jalb etish mexanizmi;

Fs — moliyaviy savodxonlik;

Fi — moliyaviy inklyuziya;

Tk — tadbirkorlik ko‘nikmalari;

Mr — moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati;

Iq — institutsional qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu formula qat’iy matematik yig‘indi sifatida emas, balki tadbirkorlik faolligini shakllantiruvchi asosiy komponentlarning tizimli bog‘liqligini ifodalovchi konseptual model sifatida qo‘llanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 2024-yilda 53,5 foizni tashkil etgani tadbirkorlik sektorining iqtisodiyotdagi katta salmog‘ini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari sonining 2023-yildagi 523 556 tadan 2024-yilda 417 080 tagacha o‘zgarishi tadbirkorlikni faqat biznesni boshlash nuqtayi nazaridan emas, balki uning moliyaviy barqarorligi va davomiyligi nuqtayi nazaridan ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Xalqaro empirik tadqiqotlarda yuqori moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik faoliyatini boshlash bilan bog‘liqligi aniqlanganligi esa ushbu yo‘nalishda moliyaviy bilimlarni amaliy biznes kompetensiyalariga aylantirishga qaratilgan mexanizmlarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu asosda aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini oshirish mexanizmining markaziy elementi sifatida moliyaviy savodxonlikni alohida emas, balki moliyaviy ta’lim + amaliy tadbirkorlik ko‘nikmasi + moliyaviy xizmatlardan foydalanish + maslahat va axborot ta’minoti + institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimining bir qismi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda moliyaviy savodxonlik shaxsning bilim darajasini oshirish bilan cheklanmay, uning moliyaviy qarorlarini takomillashtirish va ushbu qarorlarni real iqtisodiy faoliyatga aylantirish vositasiga aylanadi. Natijada aholining mavjud moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish qobiliyati, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish imkoniyati va biznes faoliyatining barqarorligini ta’minlash salohiyati o‘zaro bog‘langan holda rivojlanadi (3-jadval).

3-jadval

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

T/r	Taklif yo‘nalishi	Taklifning mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Moliyaviy ta’limni kuchaytirish	Aholi uchun daromad va xarajatlarni rejalashtirish, jamg‘arish, kreditlardan foydalanish, investitsiya va moliyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini kengaytirish	Moliyaviy qarorlar sifatining oshishi va moliyaviy xatolarning kamayishi
2	Tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish	Moliyaviy savodxonlik kurslarini biznes-reja tuzish, xarajatlarni hisoblash, narx belgilash, daromadni prognozlash va biznes risklarini baholash ko‘nikmalari bilan integratsiyalash	Aholining biznes tashabbuslarini amaliy faoliyatga aylantirish imkoniyati kengayadi

3	Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish	Aholining bank, sug‘urta, kredit, jamg‘arma va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish	Moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati va tadbirkorlik faolligi oshadi
4	Axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirish	Tadbirkorlikni boshlash, moliyalashtirish manbalarini tanlash, kredit shartlarini baholash va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bo‘yicha maslahat xizmatlarini kuchaytirish	Aholining axborot yetishmovchiligi kamayadi va moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish samaradorligi oshadi
5	Raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish	Mobil bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, raqamli kreditlash va shaxsiy moliyani boshqarish vositalaridan xavfsiz foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish	Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi va moliyaviy xavfsizlik oshadi
6	Tadbirkorlik tashabbuslarini institutsional qo‘llab-quvvatlash	Yangi tadbirkorlik subyektlari uchun maslahat, o‘qitish, moliyalashtirish va biznesni rivojlantirish xizmatlarini yagona tizimga birlashtirish	Tadbirkorlikni boshlashdagi institutsional to‘siqlar qisqaradi
7	Moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	Kredit yuklamasi, daromadlarning o‘zgaruvchanligi, biznes xarajatlari va boshqa moliyaviy risklarni baholash bo‘yicha amaliy metodikalarni joriy etish	Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy barqarorligi kuchayadi
8	Moliyaviy savodxonlik monitoringini joriy etish	Aholining moliyaviy bilimlari va ko‘nikmalarini muntazam baholash hamda hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida monitoring qilish	Moliyaviy ta’lim siyosatini aniq ehtiyojlar asosida takomillashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi

Jadvalda keltirilgan takliflar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishni faqat nazariy bilim berish bilan chegaralamay, uni tadbirkorlik faoliyatining amaliy ko‘nikmalari, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘lashga qaratilgan. Ayniqsa, moliyaviy ta’lim va tadbirkorlik ko‘nikmalarining integratsiyasi aholining moliyaviy bilimlarini real biznes qarorlariga aylantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilayotgan mexanizmda moliyaviy savodxonlik → tadbirkorlik ko‘nikmalari → moliyaviy resurslardan foydalanish → institutsional qo‘llab-quvvatlash → tadbirkorlik faolligi ketma-ketligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda moliyaviy inklyuziyaning kengayishi aholining mavjud moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasini oshirsa, axborot-maslahat xizmatlari va risklarni boshqarish vositalari tadbirkorlik qarorlarining asoslanganligini kuchaytiradi. Moliyaviy savodxonlik monitoringining joriy etilishi esa amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini muntazam baholash va ularni hududiy hamda ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lusardi A., Mitchell O. S. The Importance of Financial Literacy: Opening a New Field // Journal of Economic Perspectives. – 2023. – Vol. 37, No. 4. – P. 137–154. – DOI: 10.1257/jep.37.4.137.
2. Guo Q., Qian Y., Tan W., Xie Z. Does financial literacy drive entrepreneurship in rural China? // Finance Research Letters. – 2024. – Vol. 61. – Article 105046. – DOI: 10.1016/j.frl.2024.105046.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. The Central Bank has prepared an analytical overview “Overview of the Central Bank’s activities on improving financial literacy”. – 2026. – 13 mart.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Eksperimental tadqiqotni amalga oshirish bo‘yicha muhim bosqichlar yakunlandi. – 2026. – 17 iyul.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bank va ERGO Analytics o‘rtasida ilmiy-akademik hamkorlik memorandumi imzolandi. – 2026. – 21 may.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Share of small business and private entrepreneurship in GDP: SIAT ma’lumotlar bazasi. – 2026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlari soni qanchaga ko‘paygan? – 2023. – 1 fevral.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar. – 2023.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Share of small businesses in GDP: SIAT ma’lumotlar bazasi. – 2026.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. The share of small businesses in the total volume of investments in fixed assets: SIAT ma’lumotlar bazasi. – 2026.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100